



USE OF VERBAL-COGNITIVE TEACHING METHODS IN TEXT WRITING

Raximova Mohinabonu Abduxamid qizi
SamVXTXQTMOHM o'qituvchisi

Abstract

This article suggests the use of verbal-cognitive technologies for the development of critical thinking in the study of text.

Keywords: interactive methods, verbal-cognitive technologies, thinking, critical thinking, text, text analysis.

Ona tili o'qituvchilari mashg'ulotlarda o'tilayotgan har bir hosila o'quvchi yoki o'quvchi diqqatini o'ziga tortishi, uni ijodiy yondashishga undashiga qaratilishi lozimligini yaxshi bilishi kerak. Bunda ta'limning an'anaviy va noan'anaviy usullaridan ham foydalanish mumkin. Jumladan, ona tili mashg'ulotlarida ongli, verbal-kognitiv ta'lim usulini qo'llashga oid quyidagi topshiriqlarni ko'ramiz:

1-topshiriq. Vatanimiz tabiatni, manzaralarini yaxshi ko'rgan har bir inson uni yuragi bilan sezadi:

1. *Og'ir kechar qishloqda*
Ko'sak chuviydigan vaqt. ("Kech kuzak")
2. *Chimdib tortar quloqni,*
Ignar sanchar izg'irin.
Tuman. Ko'rmay uzoqni
Hamma turtar bir-birin. ("Ko'klam sog'inchi")

Iste'dodli shoir A'zam O'ktamning bu she'riy misralarida tabiat fasllaridan kuz tasvirlangan. Dastlab matn tuzilishiga diqqat qilib, o'quvchilarga quyidagi savollarga javob topish topshiriladi:

- bu misralarda shoir qanday sintaktik birliliklardan foydalangan?
- bu vositalardan foydalanganda qanday maqsad qo'yilgan?
- boshqa shoirlar asarlaridan shunga o'xshash (fasllarning berilishi) misollarni topish va ularni slaydda berilgan she'riy parchalar bilan qiyoslash va xulosalash.

O'quvchilarga o'zлari yaxshi ko'rgan fasl tasvirini yozishni taklif etish ham mumkin. Shoir o'z misralarida har bir so'z – gap, yoyiq sodda gaplardan unumli va o'rinni foydalangan. Natijada, o'quvchiga yaxshi ta'sir qiladigan matnlar vujudga kelgan. Shu kabi to'g'ri tasvirni beruvchi, o'quvchining diqqatini tortuvchi misralar tuzishni topshirish va tahlil qilish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

2-topshiriq. Qishloq. Yoz. Jazirama. Qoq tush mahali baqaterak ostidan zaif bir "puf" yelib o'tadi. U – shu makonning epkini. Terak barglarini bir chayqatadi-yu, ariq bo'yiga o'zini tashlaydi. Yana birini suv shabadasi deydilar. Qayrag'ochdan uzoqqa ketolmay, kambar barglar orasida aylanib esadiganiyam bor. Quvvati kuchliroq bo'lgani sababli sal beriroqqa kelib, issiqda qimir etmay turgan jo'xorilarni chayqatib o'ynaydi.

Ba'zilari yo'llarda sho'xlik qilishadi. Qumoq yo'ldan ketaveringchi. Yo'l o'rtasida yo chetida mitti girdob yasab, chang ko'tarib, tuproq bilan qasdlashib pirillayotgan quyunchani ko'rib qolasiz.

Yana bir turli shabada tong-u shomda bedazorlar tomondan esadi. Saharlab o'sha yoqqa ketib, oqshom iziga qaytsa kerak. Olislardan keladigan qudratli shamol esa tevarakni kulrangga o'zgartirib yuboradi. (*Isajon Sulton. "Genetik" romanidan*)

**2-topshiriq.****1. Yuqorida berilgan matnga sarlavha tanlang.**

	Yoz faslining orombaxsh halovati
	Sahardan tortib to kechgacha bo'lgan ta'surotlar
	Shamolning turlari va o'ziga xosligi
	Yoz faslining shamollari

2. Yuqoridagi matnga e'tibor bergan holda ortiqcha so'zlarni belgilang.

	Grey (<i>inglizcha</i>)		Jo'xorizor		Tong
	Epkin		Shamol		Yo'l
	Chotida		Kambar		Quv
	Qayrag'och		Oriq		Esa

3. Matnda shamolning nechta turi ta'riflangan?

Javob: _____

4. Matnni so'zlab beruvchi shaxs necha yoshda bo'lishi mumkin?

- 10-15 yosh 20-25 yosh 30-35 yosh
 40 va undan katta bilmadim

**5. Ma'lumotlarni izohlarga mos joylashtiring.**

	Qumoq		eni kichik, ensiz
	Kambar		suv yoki shamol uyurmasi
	Girdob		hovli yonidagi yer bo'lagi
	Tomorqa		qum aralashib, donador bo'lgan
	Qayrag'och		teraklarning tarvaqaylab o'sadigan turi
	Baqaterak		yog'ochi qattiq, shoxlari tig'iz, soyali daraxt

6. Tasavvur qiling, Siz yozning issiq kunlarida qaysi shamolning turiga muxtoj bo'lardingiz?
(Matndan foydalanib javob bering.)

Javob: _____

F.I.Sh: _____

Ball: 1. ____; 2. ____; 3. ____; 4. ____; 5. ____; 6. ____.

Umumiy ball: _____



Demak, o'quvchilar tomonidan topilgan matnlarning tuzilishi, qanday mavzularni ifodalashi, qaysi vositalar yordamida o'z maqsadiga erishishi o'quvchining yozma hamda og'zaki nutqini mantiqan to'g'ri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Истиқболли лойиҳалар халқимиз фарвонлигига хизмат қилмоқда / «Халқ сўзи» гатезаси, 2018 йил 23 январь.
2. Musayev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. – Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati. 2010.
3. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. – Toshkent: O'qituvchi, 2001, 34 bet.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy asoslari. - Toshkent, 1996.
5. Azamov A. O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish. - Toshkent, 2004.